



TARBIYA-YOSHLAR KELAJAGI POYDEVORI

Abdullayeva Feruza Shavkatovna-CHDPU “Maktabgacha ta’lim” fakulteti
o’qituvchisi

Abduqodirova Nozima CHDPU “Maktabgacha ta’lim” fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7351382>

Annotasiya. Ushbu maqolada tarbiya masalasi har qanday davrda har qanday jamiyatda o‘z ahamiyati bilan dolzarb ekanligi haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ma’naviy -axloqiy tarbiya, tarbiya jarayoni, oilaviy tarbiya, estetik tarbiya.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Agar mendan sizni nima qiynaydi?” deb so’rasalar, farzandlarimning tarbiyasi deb javob beraman. Bizni hamisha o’ylantirib keladigan yana bir muhim masala -bu yoshlarimizning odob -axloqi, yurish -turishi bir so‘z bilan aytganda dunyoqarashi bilan bog‘liqdir. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgargan bir davrda bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan bu yoshlardir. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin, lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doim aks -sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan. Har bir inson har kuni qiladigan ishini xuddi birinchi marta qilayotgandek qilish kerak. Shundagina ishda rivojlanish boladi. Yuqori sinflarda bolalar shaxs bo‘lib jamoa bo‘lib shakllanadi. Ayni o’sha paytda ularni o‘zlari o‘rgangan muhitdan ajratib qo‘ymaslik kerak. Bu yoshlarimizning ruhiyatiga davomatiga oxir oqibatda ta’lim-tarbiyasiga salbiy ta’sir qilish mumkin. “Bugungi kunda tarbiya jarayonida axborot va texnika vositalaridan foydalanishga alohida diqqat e’tibor qaratilmoqda. Ulardan maqsadga



muvoqif va samarali foydalanish o'quvchilarning ma'naviy kamolga yetishi uchun yordam beradi. Farzandlarimizning kelajakda komil inson bo'lib yetishlarida oila va jamiyatda yaxshi tarbiya olishning o'rnini beqiyosdir. Ota-onalar ustoz va murabbiylar, rahbar va yoshi kattalar qancha madaniyatli, odobli bo'lsa shu jamiyat va muhitda o'sayotgan shaxslar ham shunchalik odobli bo'lib yetishadi. Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo-hayot, yo-mamot, yo-najot, yo-halokat, yo-saodat, yo-falokat masalasidir" degan so'zlarini aslo unutmasligimiz lozim. Ayni shu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki Yunonistonning mashhur mutafakkirlari Aflotun va Arastu ta'lim -tarbiya bilan shug'ullanuvchi odam o'zi tarbiya ko'rmagan bo'lsa boshqalarni tarbiya qilolmaydi. Xulqi yaxshi inson boshqa kishilarni yaramas va iflos ishlarga boshlay olmaydi. Agar sen o'z o'quvchingni tarbiyalamoqchi bo'lsang, avvalo o'z ruhingni tarbiyalashdan boshla. Hozirgi kunda ta'lim -tarbiyaga oid asarlar, nasihatlar keng tarqalgan. Misol qilib aytadigan bo'lsak Farididdin Attorning "Pandnoma"si O'bayd Zakoniyning "Sand Pand" kabi asarlari bor. Yana shunday narsa borki, ota -onalar bolalarini tarbiya qilmasin, ular oldin o'zlarini tarbiya qilsin, chunki farzand baribir ota -onaga o'xshagan bo'ladi. Agar ota -onalar bolalarini yoshligidan tarbiya qilib bormasalar ulardan yomon odatlar paydo bo'la boshlaydi. Ota -onani biz bog'bon desak farzand ularning daraxti desak bo'ladi. Bog'bon daraxtni parvarish qilib ortiqcha shoxlarini kesib turmasa u taravaqaylab atrof -muhit go'zalligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, biz tarbiya jarayoniga hozirdan e'tibor bermasak, ertaga kech bo'lishi haqida hatto mutafakkirlarimiz ham o'z asarlarida aytib o'tgan. Sohibqiron Amir Temur "Tuzuklar" asarida shaxsni ijtimoiy tarbiyalash masalasini talqin qilgan va bunda shaxsda murosa fazilatini shakllantirish lozimligini ta'kidlaydi. Jadid mutafakkirlari Mahmudxo'ja Behbudiy "Padarkush" pedagogik dramasida bilim olmagan bolaning padarkush bo'lib yetishi tasvirlab bergan. Chex pedagogi Yana Amons Komenskiy "Buyuk didaktika" asarida yosh avlodni o'qitish vositasida tarbiyalashni asoslab



bergan.Shved pedagogi Iagon Genrix Pistalotsi “Erudiga maktablar” asarida yoshlarni ijtimoiy tarbiyalash va bunda ularni savodxon qilish masalasiga alohida tayanish lozimligini asoslab bergan.Hozirgi kunda Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “Tarbiya”ni fan

BOSH_ADMIN, [23.11.2022 17:51]

sifatida o‘quvchilarga tadbiq etdilar. BMTning tashabbusi bilan “Hayot davomida ta’lim va tarbiya olish”dasturi amalga kiritilgan.Tarbiyaning yana shunday turlar ham borki, estetik tarbiya, jismoniy tarbiya, mehnat tarbiyasi, axloqiy tarbiya. Bu esa bolalarga maktabgacha ta’lim yoshida singdirib boriladi.Estetik tarbiya (nafosat tarbiyasi)bolalarda hayotga bo‘lgan muhabbatini,his tuyg‘usini va ko‘nikmalarining o‘rib borishiga yordam beradi.Estetik tarbiya -eng avvalo har bir kishida badiiy hissiyot tuyg‘ularini, badiiy didni tarbiyalashdir.Estetik tarbiya orqali yoshlarda kamtarlik xislatlari tarkib topadi.Bu xislat kishilarning eng go‘zal belgisidir.Salbiy xatti -harakatlardan nafratlana bilish tuyg‘usini ham estetik tarbiya paydo qiladi.Bunda asarlarning roli beqiyosdir.Misol qilib aytadigan bo‘lsak “Zumrad va Qimmat”ertagida Qimmatning xulq atvori bolalar qalbida nafrat uyg‘otadi.Zumradning tevarak atrofga munosabati, mehnatsevarligi,kamtarligi qalblarda quvonchni paydo qiladi.Estetik tarbiyaning asosiy vositalari:bolalarni o‘rab turgan muhit, turmush estetikasi, tevarak atrofdan olingan taassurotlar,tabiat, san’at asarlari, bolalarning tasviriyl faoliyati,bayramlar, ko‘ngilochar tadbirlar. Ma’lum maqsadga qaratilgan va rejali ravishda amalga oshiriladigan ta’lim O‘zbekiston Respublikasida 2020 yilda o‘zbek “Pedagogika”fani tarixida ilk bor “Tarbiya”fani sifatida ishlab chiqildi.Bu esa bolalarni har tomonlama yetuk va bilimli qilib tarbiyalash imkoniyatini beradi. “Tarbiya”fani “Odobnoma”va “Vatan tuyg‘usi”kabi fanlarning jamlanmasidan tashkil topgan.Tarbiya jarayoning asosini



quyidagilar tashkil qiladi:

-Talim tarbiyaga oid me'yoriy hujjatlar;

-Tarbiya asoslari;

Tarbiya qonuniyatlari, metodlari va tehnologiyalari;

Tarbiyaning amaliy masalalari;

Ayni mazkur asoslar estetik tarbiyaning negizini tashkil etadi. O'zbekiston ta'lim tizimida jumladan, Oliy ta'lim jarayonida "Tarbiya" fani asoslarini zamonaviy talablar asosida o'qitish va o'rganish zaruriyat hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar bilan ta'limiy faoliyat turlarini o'tkazish jarayonida bolalar estetik tarbiyaga o'rgatib boriladi. Misol qilib aytadigan bo'lsak, san'at markazlarida bolalarning estetik tarbiysi shakllanadi. San'at markazlarida bolalarga haftaning juma kunida "Mening oilam" mavzusini o'tadilar. Pedagoglarimiz ayni shu orqali bolajonlarda estetik tarbiya, mehnat tarbiyasini shakllantirishi mumkin. Bola oilasining rasmini chizishi va shu rasmdan ularning oiladagi tarbiyasini bilib olish mumkin. Bu jarayonda bola o'z tasavvurlaridan kelib chiqqan holda rang tanlaydi va yana qo'shimcha predmetlar qo'shishi mumkin. Bugungi kunda tarbiya jarayonida axborot tehnologiya vositalaridan foydalanishga alohida diqqat e'tibor qaratilmoqda. Ulardan maqsadga muvofiq foydalanish o'quvchilarning ma'naviy kamolga yetishiga yordam beradi. Estetik tarbiya juda keng tushuncha bo'lib, kamtarlik xususiyatlarini oshiradi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

Maktabgacha pedagogika.

F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. "Toshkent" nashriyot. Toshkent-2019

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston nashriyoti. Toshkent-2022
"Mahoratli pedagog" 2022 yil 5-son va 6-son